

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

No1

2026
yanvar



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[™]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX
COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 97 sahifa.
2026-yil, yanvar

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ И ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА УЗБЕКИСТАНА.....	26
Каракулов Фарход Зайпудинович	
TRANSPORT TIZIMIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH USULLARI	33
Bababekova Gulchexra Baxtiyarovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQARUVCHI KORXONALARNING SIFAT MENEJMENTI TIZIMINI BAHOLASH	38
Achilov Ilmurad Nematovich	
TURIZM OBYEKTLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	45
Toshtemirov Xojiakbar Qahramon o'g'li	
КАЧЕСТВО КРЕДИТНОГО ПОРТФЕЛЯ БАНКОВ УЗБЕКИСТАНА ЧЕРЕЗ ПРИЗМУ ПРОБЛЕМНЫХ КРЕДИТОВ	51
Алиева Сусанна Сейрановна	
ВЛИЯНИЕ ЛИБЕРАЛИЗАЦИИ И РЫНОЧНЫХ МЕХАНИЗМОВ НА РАЗВИТИЕ ОВЦЕВОДСТВА И КАРАКУЛЕВОДСТВА В ГЛОБАЛЬНОМ МАСШТАБЕ	58
Нуриллаев Жамолиддин Ярашевич	
BARQAROR INVESTITSİYALAR: IQTISODIYOTDAGI ROLI VA DOLZARBLIGI	65
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna	
KRAUDFANDING – BARQAROR RIVOJLANISHNI AMALGA OSHIRISH UCHUN INNOVATSION MOLIYAVIY VOSITA SIFATIDA.....	71
Ashurova Oltin Yuldashevna	
FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASHDA MOLIYAVIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI.....	78
Xusanova Gulsum Baxtiyorovna	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI UCHUN BARQAROR BREND QIYMATINI SHAKLLANTIRISH STRATEGIYALARI	84
Bekmurod Davlatmurotovich Ollaberganov, Zilola Baxramovna Abdikarimova	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA KORPORATIV BOSHQARUVNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	89
Atajanov Kamal Atavayevich	



TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA KORPORATIV BOSHQARUVNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Atajanov Kamal Atavayevich

Urganch RANCH texnologiya universiteti

“Iqtisodiyot” kafedrası o'qituvchisi

Email: nurullabek@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik subyektlari investitsion jozibadorligini oshirishda korporativ boshqaruvning tutgan o'rni va aksiyalar nazorat paketiga ega bo'lgan kompaniyalar faoliyatining o'ziga xos jihatlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Xalqaro standartlar, davlat ishtirokidagi korxonalar transformatsiyasi, axborot shaffofligi talablarining kuchayishi, investorlar bilan ishlash bo'limlarining joriy etilishi hamda korporativ boshqaruv mexanizmlarining samaradorligi investitsion risklarni kamaytirish va kapitallashtirishni oshirish omillari sifatida baholanadi.

Kalit so'zlar: korporativ boshqaruv, investitsion jozibadorlik, nazorat aksiyadori, investorlar bilan ishlash bo'limi, axborot shaffofligi, moliyaviy barqarorlik.

Abstract. This article provides a scientific analysis of the role of corporate governance in enhancing the investment attractiveness of business entities in the Republic of Uzbekistan, as well as the specific features of companies with a controlling block of shares. International standards, the transformation of state-owned enterprises, the strengthening of information transparency requirements, the introduction of investor relations departments, and the effectiveness of corporate governance mechanisms are assessed as key factors in reducing investment risks and increasing capitalization.

Keywords: corporate governance, investment attractiveness, controlling shareholder, investor relations department, information transparency, financial stability.

Аннотация. В статье научно анализируется роль корпоративного управления в повышении инвестиционной привлекательности субъектов предпринимательства Республики Узбекистан, а также особенности деятельности компаний, обладающих контрольным пакетом акций. Международные стандарты, трансформация предприятий с государственным участием, усиление требований к информационной прозрачности, внедрение подразделений по работе с инвесторами (Investor Relations), а также эффективность механизмов корпоративного управления оцениваются как ключевые факторы снижения инвестиционных рисков и роста капитализации.

Ключевые слова: корпоративное управление, инвестиционная привлекательность, контрольный акционер, подразделение по работе с инвесторами, информационная прозрачность, финансовая устойчивость.

KIRISH

Jahon kapital bozorlariga chiqishga bo'lgan intilish kuchayib borayotgan sharoitda investorlar ushbu kompaniyalardan boshqaruv standartlarini xalqaro talablarga muvofiq takomillashtirishni kutmoqda. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida korporativ boshqaruv tizimini isloh qilish, davlat ishtirokidagi korxonalarni transformatsiya qilish hamda mahalliy kompaniyalarni jahon kapital bozorlariga chiqish jarayonlariga moslashtirishga qaratilgan institutsional islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Mazkur jarayonlar investorlar tomonidan yuqori darajadagi shaffoflik, moliyaviy hisobotlarni xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida yuritish hamda kuzatuv kengashlarida mustaqil a'zolar institutini kuchaytirish kabi talablarning ortishiga olib kelmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 26-oktabrdagi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-apreldagi PQ-163-sonli qarorida davlat ishtirokidagi korxonalarda korporativ boshqaruvni takomillashtirish, strategik transformatsiyani amalga oshirish va moliyaviy shaffoflikni oshirish vazifalari belgilab berilgan bo'lib, mazkur hujjatlar aksiyalarni ommaviy joylashtirishga chiqish jarayonida xalqaro investorlar talablariga mos boshqaruv standartlarini joriy etishning me'yoriy-huquqiy asosi sifatida xizmat qiladi [2].

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da kapital bozorini rivojlantirish, davlat ishtirokidagi korxonalarning aksiyalarini birlamchi va ikkilamchi ommaviy joylashtirish mexanizmlarini kengaytirish (IPO/SPO), korporativ boshqaruv standartlarini xalqaro amaliyotga muvofiqlashtirish hamda investorlar huquqlarini himoya qilish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan [3].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadbirkorlik subyektlarining investitsion jozibadorligini oshirishda korporativ boshqaruvning o'rni iqtisodiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Korporativ boshqaruv nazariyasining shakllanishi va rivojlanishida agentlik yondashuvi metodologik asos sifatida muhim o'rin egallaydi hamda mazkur nazariyaning fundamental poydevorini tashkil etadi. Michael C. Jensen va William H. Meckling kompaniyalarda mulkdorlar va menejerlar o'rtasidagi manfaatlar ziddiyati investitsion risklarning asosiy manbai ekanligini ta'kidlab, samarali korporativ boshqaruv ushbu ziddiyatlarni kamaytirishini asoslab bergan [4]. Korporativ boshqaruv va investitsion jozibadorlik o'rtasidagi bog'liqlik masalasini A. Shleifer va R. Vishny chuqur tahlil qilgan. Ularning fikricha, nazorat aksiyadorining mavjudligi strategik qarorlar samaradorligini oshirishi mumkin, biroq minoritar aksiyadorlar huquqlarini himoya qiluvchi mexanizmlar sust bo'lsa, investitsion jozibadorlik pasayadi [5]. Investorlar huquqlarini himoya qilish va kapital bozorlari rivoji o'rtasidagi bog'liqlik Rafael La Porta tomonidan tadqiq qilingan bo'lib, u kuchli korporativ boshqaruv institutlariga ega mamlakatlarda kompaniyalar kapitallashuvi va investitsiya oqimi yuqori bo'lishini empirik asosda isbotlagan [6].

Korporativ boshqaruvning moliyaviy natijalarga ta'siri masalasida D. Gromb samarali boshqaruv mexanizmlari kapital qiymatini oshirib, investitsion risklarni kamaytirishini ta'kidlaydi [7]. Shuningdek, L. Bebchuk korporativ boshqaruvda aksiyadorlar huquqlarining kuchaytirilishi kompaniya bozor bahosining oshishiga bevosita ta'sir ko'rsatishini asoslab bergan [8]. Xalqaro ilmiy adabiyotlarda ta'kidlanishicha, investorlarga yo'naltirilgan boshqaruv modeli kompaniyaning investitsion jozibadorligini oshirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi [9]. Shuningdek, global miqyosdagi investitsion jarayonlar tahlili korporativ boshqaruv sifati investitsion risklarni pasaytirishda muhim institutsional omil ekanini tasdiqlaydi.

Tadbirkorlik subyektlarining investitsion jozibadorligini oshirishda korporativ boshqaruvning o'rni O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar tomonidan ham tizimli ravishda o'rganilmoqda. Milliy tadqiqotlarda korporativ boshqaruv sifati investitsion risklarni kamaytirish va investorlar ishonchini mustahkamlashning muhim institutsional omili sifatida qoraladi. J. Qurbonov tomonidan olib borilgan tadqiqotda korporativ tuzilmalarning investitsion jozibadorligiga ta'sir etuvchi asosiy ichki va tashqi omillar chuqur tahlil qilingan [10]. Muallif korporativ boshqaruv mexanizmlarining shaffofligi, boshqaruv organlarining javobgarligi hamda axborot ochiqligi investorlarga ijobiy signal berishini asoslab beradi. Tadqiqot natijalari korporativ boshqaruv darajasi past bo'lgan subyektlarda investitsion risklar yuqori bo'lishini ko'rsatadi. O'zbekiston sharoitida korporativ boshqaruv tizimini joriy etish va rivojlantirish masalalari N. Akramova tomonidan tadqiq etilgan. Muallif korporativ boshqaruv tamoyillarini amaliyotga tatbiq etish investorlar huquqlarini himoya qilish, moliyaviy intizomni kuchaytirish va investitsion muhitni yaxshilashga xizmat qilishini ta'kidlaydi. Tadqiqot milliy korxonalarda korporativ boshqaruv va investitsion faollik o'rtasidagi bog'liqlikni yoritadi [11].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tadbirkorlik subyektlarining investitsion jozibadorligini oshirishda korporativ boshqaruv omillarining ta'sirchanligi kompleks yondashuv asosida tadqiq qilingan bo'lib, metodologik nuqtayi nazardan tizimli va institutsional tahlil, qiyosiy-huquqiy yondashuv, kontent-tahlil hamda omilli baholash usullari qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiy adabiyotlarda investitsion jozibadorlik investitsiya obyektining rivojlanish salohiyati, kutilayotgan rentabellik hamda unga xos risklar majmuasini aks ettiruvchi integrallashgan baholash ko'rsatkichi sifatida izohlanadi. Kompaniyalarning investitsion jozibadorligini baholashda yagona, umumqabul qilingan metodologik yondashuv mavjud emas, chunki baholash jarayoni korxonaning faoliyat sohasi, axborot shaffofligi, biznes modeli va tahlil maqsadlariga qarab farqlanadi [13].


Odatda investitsion jozibadorlik ko'p mezonlar asosida aniqlanadi va tahlil ko'p jihatdan ekspertlarning tajribasi hamda subyektiv bahosiga tayanadi. Jahon tajribasida kompaniyalar asosan ikkita yondashuv orqali baholanadi:

- koeffitsiyentlar tahlili (jumladan: likvidlik, rentabellik, moliyaviy barqarorlik, bozor faoliyati koeffitsiyentlari);



- omilli baholash modeli, ya'ni korxonaning ichki va tashqi rivojlanish omillarini kompleks tahlil qilish [14].

Baholashning asosiy vazifasi investitsiyalarning daromadlilik salohiyatini aniqlash hamda risk darajasini optimallashtirish bo'lib, investorlar, odatda, risk/daromadlilik nisbatining maqbul darajasiga erishishni maqsad qiladilar. Shuning uchun kompaniyaning turli jozibadorlik omillari birgalikda baholanadi. Ilmiy adabiyotlarda ushbu omillar quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha guruhlanadi (1-rasm):



1-rasm. Investitsion jozibadorlikni baholash omillari¹

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida olib borilayotgan tarkibiy islohotlar, xususan, korporativ boshqaruv standartlarining joriy etilishi, davlat korxonalarini transformatsiya qilish va investitsion muhitni yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar yuqoridagi omillarning milliy sharoitda ham dolzarbligini kuchaytirmoqda [15]. Shuningdek, O'zbekistonda jadal rivojlanayotgan klasterlar, eksportga yo'naltirilgan korxonalar va texnologik start-aplar uchun innovatsion va moliyaviy jozibadorlik ko'rsatkichlari investitsion qarorlar qabul qilishda hal qiluvchi omilga aylanmoqda.

Kompaniyaning moliyaviy jozibadorligi investitsion jozibadorlikning markaziy komponenti bo'lib, investorlar uchun barqaror iqtisodiy natija olish imkoniyatini anglatadi. Moliyaviy natijalar barqaror bo'lmaganda, investitsiya kiritish jarayoni yuqori darajadagi moliyaviy risklar bilan to'qnash keladi. Shu sababli moliyaviy jozibadorlikni baholashda korxonaning likvidlik, moliyaviy barqarorlik, to'lovga qobillik va rentabellik kabi ko'rsatkichlari ustuvor ahamiyat kasb etadi [13].

Bundan tashqari, aktivlar aylanishi, ishlab chiqarish va mahsulot rentabelligi kabi ko'rsatkichlar korxonaning bozor faolligi va operatsion samaradorligini belgilab, investorlarning kutilayotgan daromadlilik bo'yicha qarorlariga bevosita ta'sir qiladi [14].

Davlat ishtirokidagi korxonalarda investorlar bilan ishlash tizimini shakllantirish korporativ boshqaruvning xalqaro standartlariga muvofiq tarzda korxona faoliyatining shaffofligi va javobgarlik darajasini kuchaytirishga xizmat qiladi. Investorlar bilan aloqalarni amalga oshirish bo'yicha maxsus bo'linmalar kompaniyaning moliyaviy barqarorligi, strategik rivojlanish rejalari, ishonchga asoslangan huquqiy va boshqaruv majburiyatlari hamda aksiyadorlar manfaatlariga ta'sir etuvchi omillar bo'yicha aniq va to'liq axborot taqdim etishi zarur. Ushbu bo'linmalar korporativ kotib instituti bilan o'zaro hamkorlikda faoliyat yuritishi aksiyadorlar huquqlarini tartibga soluvchi normativ masalalarda shaffof boshqaruvni ta'minlaydi.²

Kompaniyaning faoliyatiga oid ma'lumotlarni ochiqlash, auditdan o'tgan moliyaviy hisobotlar, yillik hisobotlar hamda korporativ boshqaruv kodeksi doirasidagi deklaratsiyalar investorlar ishonchini kuchaytiradi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, investorlar bilan aloqalarni amalga oshirish bo'yicha maxsus bo'linmalar samarali faoliyat yuritgan kompaniyalarda aksiyalar kapitallashtirilishi va investorlar bazasi sezilarli darajada kengayadi [10].

¹ Muallif ishlanmasi

² Korporativ kotib instituti - kompaniyada korporativ boshqaruv tamoyillari va normalarining bajarilishini ta'minlash, aksiyadorlar huquqlari va manfaatlarini himoya qilish, boshqaruv organlari faoliyatining qonuniyligi, shaffofligi va hisobdorlik mexanizmlarini uyg'unlashtirishga xizmat qiluvchi tashkiliy-huquqiy institut.

Aksiyalari birja muomalasiga chiqarilmagan korxonalarda kam ulushga ega bo'lgan aksiyadorlar (minoritar aksiyadorlar) uchun likvidlik darajasi past bo'lishi mumkin. Mazkur sharoitda likvidlikni oshirishning asosiy mexanizmlari sifatida yirik aksiyador tomonidan kichik ulush egalari aksiyalarini sotib olish majburiyatini o'z zimmasiga olish, korxonaning o'z aksiyalarini qayta sotib olish amaliyotini joriy etish hamda kompaniyaning listingdan o'tib fond bozoriga chiqishi qaraladi. Ushbu choralar korporativ nizolarni kamaytiradi va aksiyadorlar manfaatlarini muvozanatlashtiradi [16].

Davlat korxonalarida manfaatlar to'qnashuvi xavfi nisbatan yuqori bo'lib, bu davlatning nazorat paketi mavjudligi bilan izohlanadi. "Standard & Poor's" reyting agentligi bitta yirik aksiyadorning mavjudligini korporativ boshqaruv sifati pasayishiga olib keluvchi omil sifatida baholaydi, chunki bu qaror qabul qilishda manfaatlar diversifikatsiyasining susayishiga sabab bo'ladi.


O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, 2020–2024-yillardagi korporativ boshqaruv islohotlari [17] davlat ishtirokidagi korxonalarda investorlar bilan muloqot mexanizmlarini kuchaytirishga, axborot siyosatini modernizatsiya qilishga, xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini joriy etishga va listing jarayonlarini jadallashtirishga qaratilgan. Ularning barchasi xalqaro standartlarga mos ravishda investitsion jozibadorlikni oshiruvchi asosiy omillar sifatida shakllanmoqda.

Davlat ishtirokidagi kompaniyalarda korporativ boshqaruvni takomillashtirish investorlarga yo'naltirilgan boshqaruv tizimini yaratishni talab qiladi. Xalqaro standartlarga ko'ra, investorlar bilan aloqalarni amalga oshirish bo'yicha maxsus bo'linmalarni tashkil etish kompaniyaning shaffofligi, axborot siyosati va aksiyadorlar bilan muloqot sifatini oshiruvchi asosiy institutlardan biridir. Bunday bo'linmalar kompaniyaning moliyaviy holati, strategik rivojlanish maqsadlari va aksiyadorlar manfaatlariga ta'sir etuvchi huquqiy-normativ jihatlar haqida to'liq ma'lumot berishni ta'minlaydi [13].

Axborotning o'z vaqtida va to'liq e'lon qilinishi, yillik hisobotlar, auditdan o'tgan moliyaviy hisobotlar hamda korporativ boshqaruv deklaratsiyalari investorlar ishonchini oshiradi va kompaniyaning bozor qiymatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. UNCTAD ta'kidlaganidek, ochiqlik va shaffoflik investitsion jozibadorlikning eng muhim omillaridan biri bo'lib, davlat ishtirokidagi korxonalarda ham bu tamoyillar barqaror kapital oqimini jalb etishga yordam beradi [14].

Aksiyalari fond bozorlarida erkin muomalaga chiqarilmagan korxonalarda aksiyalar bilan savdo hajmining cheklanganligi sababli minoritar aksiyadorlar uchun ularning tezkor realizatsiya qilinishi imkoniyati past bo'lib, natijada likvidlik darajasi yetarli darajada ta'minlanmaydi. Bunday holatlarda yirik aksiyador tomonidan kichik aksiyadorlarning aksiyalarini sotib olish bo'yicha majburiyatlarni qabul qilishi, kompaniyaning o'z aksiyalarini qayta sotib olishi yoki aksiyalarni listing orqali fond bozoriga chiqarishi korporativ nizolarni kamaytirish va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilishning samarali vositalari sifatida e'tirof etiladi [16].

Kapitalning yuqori darajada konsentratsiyalashuvi nafaqat O'zbekiston yoki boshqa MDH davlatlari iqtisodiyotlariga, balki Osiyo va Yevropaning bir qator mamlakatlaridagi korporativ boshqaruv tizimiga ham xos xususiyatdir. Xalqaro tadqiqotlar ta'kidlashicha, nazorat paketining bitta yirik aksiyador qo'lida jamlanishi bir tomondan boshqaruvning markazlashuviga, ikkinchi tomondan investitsion qarorlar samaradorligiga ta'sir etuvchi omil hisoblanadi, xususan (2-rasm) [13]:



2-rasm. Kapital konsentratsiyasi sharoitida korporativ boshqaruv samaradorligini belgilovchi omillar



1. Strategik qarorlar qabul qilishda manfaatlarning markazlashuvi. Nazorat paketiga ega bo'lgan aksiyador korporativ rivojlanishning ustuvor yo'nalishlarini mustaqil belgilash, resurslarni strategik jihatdan muhim sohalarga yo'naltirish hamda qarorlar qabul qilish jarayonini jadallashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunday boshqaruv modelida strategik qarorlar aksariyat hollarda boshqa aksiyadorlar bilan keng kelishuvsiz qabul qilinadi, bu esa boshqaruv jarayonlarida operativlikning oshishiga xizmat qiladi. Xalqaro ilmiy adabiyotlarda mazkur yondashuv "insider control" konsepsiyasi sifatida talqin qilinadi[13].

2. Aksiyadorning o'z manfaatlarini kompaniya kapitallashuvi bilan uyg'unlashtirish tendentsiyasi. Nazorat aksiyadori kompaniya ustidan to'liq nazoratni saqlab qolgan holda o'z boyligini oshirish uchun ko'pincha kompaniya kapitallashtirilishini ko'paytirishga intiladi. Bu esa uzoq muddatli strategik qarashni shakllantirib, investitsion jozibadorlikni oshirishga yordam beradi. Mazkur yondashuv, ayniqsa, mulkchilik va boshqaruv funksiyalari yuqori darajada konsentratsiyalashgan oilaviy biznes subyektlari hamda davlat ishtirokidagi korxonalarda keng uchraydi[18].

3. Boshqaruv jarayonlarida yuqori darajada ishtirokni ta'minlash. Nazorat aksiyadori ko'pincha korporativ boshqaruv jarayonlarida bevosita ishtirok etadi, boshqaruvda ustun mavqeni egallaydi hamda direktorlar kengashi faoliyatiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Bu holat kompaniya faoliyati bo'yicha javobgarlik darajasining oshishiga hamda qabul qilinayotgan qarorlar ustidan nazorat va monitoring mexanizmlarining kuchayishiga xizmat qiladi. O'zbekistonning yirik aksiyadorlik jamiyatlarida ham aynan shu tendensiya kuzatiladi.

4. Menejmentni qat'iy nazorat qilish. Nazorat aksiyadorining korporativ boshqaruvdagi faol ishtiroki aktivlarning saqlanishini ta'minlash, operatsion risklar darajasini pasaytirish hamda noto'g'ri yoki samarasiz qarorlar qabul qilinish ehtimolini kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. "Standard & Poor's" reyting agentligi yirik nazoratchi aksiyador mavjud bo'lgan kompaniyalarda boshqaruv sifati ko'p jihatdan ushbu aksiyadorning kompetentsiyasi va boshqaruv madaniyatiga bog'liq ekanini ta'kidlaydi[19].

5. Biznesni qo'shimcha ravishda moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash imkoniyati. Nazorat aksiyadorlari odatda inqirozli davrlarda kompaniyani moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlashga tayyor bo'lib, bu holat kapital resurslari yetishmovchiligi hamda tashqi xavf-xatarlar kuchaygan sharoitlarda korxona faoliyatining barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. O'zbekiston tajribasida bu holat davlat ishtirokidagi korxonalarda ayniqsa dolzarbdir[20].

6. Imij va korporativ obro' omili. Kompaniyaning kimga tegishli ekani haqida ochiq ma'lumotlar mavjud bo'lishi jamoatchilik nazorati kuchayishiga olib keladi. Nazorat aksiyadori sifatida davlatning ishtiroki bo'lsa, bu korporativ samaradorlikka qo'yiladigan ijtimoiy talablarni oshiradi. Bu esa boshqaruv sifatining yaxshilanishiga rag'batlantiruvchi omilga aylanadi.

7. Fond bozoriga chiqish yuzasidan rag'bat. Nazorat aksiyadorlari ko'pincha kompaniyani fond bozoriga olib chiqishga manfaatdor bo'ladi, chunki listing orqali kompaniya qo'shimcha kapital jalb qilishi, aksiyalarning bozor bahosi oshishi va aksiyador paketining likvidligi kuchayishi mumkin. Bu jarayon investitsion jozibadorlikni oshirishning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi.

8. Axborot shaffofligi va institutsional intizomning kuchayishi. Nazorat aksiyadorining mavjudligi kompaniyada moliyaviy va boshqaruv axborotlarini tizimli yuritish, xalqaro standartlarga mos hisobotlarni joriy etish hamda ichki nazorat mexanizmlarini mustahkamlashga bo'lgan talabni oshiradi. Yirik aksiyador, xususan institutsional investor yoki davlat ishtirokidagi subyekt sifatida namoyon bo'lgan holatlarda, kompaniya faoliyatining shaffoflik darajasi uning korporativ obro'si hamda bozor qiymatiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi muhim omil sifatida shakllanadi. Natijada, xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga muvofiq tayyorlangan moliyaviy hisobotlar, mustaqil audit mexanizmlarining joriy etilishi hamda korporativ ochiqlik darajasining oshishi tashqi investorlar uchun axborot nomutanosibligini qisqartiradi va investitsion xavf-xatarlar darajasining pasayishiga xizmat qiladi.

Kompaniyada nazorat aksiyadorining mavjudligi korporativ boshqaruv samaradorligini oshiruvchi bir qator ijobiy jihatlarni, jumladan strategik boshqaruvning markazlashuvi, uzoq muddatli rivojlanish maqsadlariga yo'naltirilgan qarorlar qabul qilinishi, menejment faoliyati ustidan kuchli nazorat mexanizmlarining shakllanishi, zarurat tug'ilganda qo'shimcha kapital bilan qo'llab-quvvatlash imkoniyati hamda kompaniyaning bozor imiji va obro'-e'tiborining mustahkamlanishini ta'minlashi mumkin. O'zbekistonning davlat ishtirokidagi korxonalari misolida bu omillar investitsion jozibadorlikni oshirishda muhim rol o'ynayotgani kuzatiladi.

Kompaniyada nazorat aksiyadorining mavjudligi muayyan strategik afzalliklarni shakllantirishi mumkin bo'lsa-da, mazkur afzalliklarning yuzaga chiqishi o'z-o'zidan ta'minlanmaydi va ular samarali korporativ boshqaruv mexanizmlarining mavjudligiga bog'liq bo'ladi. Ularning amalda namoyon bo'lishi korporativ boshqaruv tizimining qanchalik samarali shakllantirilishiga bevosita bog'liq. Xalqaro ilmiy adabiyotlarda qayd etilishicha, nazorat aksiyadori mavjud bo'lgan korxonalarda manfaatlar muvozanati ta'minlanmasa, qarorlar qabul qilish jarayonida shaffoflik yetarli darajada shakllanmasa hamda korporativ boshqaruvning institutsional

asoslari sust bo'lsa, kutilayotgan potensial afzalliklar aks ta'sir ko'rsatib, qo'shimcha risklar manbayiga aylanishi mumkin [13].

Shu sababli, nazorat aksiyadorining mavjudligi minoritar aksiyadorlar, kreditorlar, mehnat jamoasi hamda davlat kabi manfaatdor tomonlar uchun ijobiy natijalar keltirishi uchun korporativ boshqaruv tamoyillarini muayyan ustuvor yo'nalishlarda tizimli ravishda mustahkamlash zarurati yuzaga keladi:

- direktorlar kengashi faoliyatining korporativ boshqaruv tizimida mustaqil institut sifatida qaror topishi;
- risklarni boshqarish va ichki nazorat tizimlarining kuchaytirilishi;
- axborot ochiqligi va shaffoflikning ta'minlanishi;
- minoritar aksiyadorlar huquqlarining kafolatlanishi;
- uzoq muddatli strategik maqsadlarning aniq belgilanishi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shundan dalolat beradiki, O'zbekiston tadbirkorlik subyektlarining investitsion jozibadorligi korporativ boshqaruv sifati bilan bevosita bog'liqdir. Xususan, axborot shaffofligining ta'minlanishi, xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida hisobot yuritilishi, direktorlar (kuzatuv) kengashining mustaqilligi, risklarni boshqarish tizimining rivojlanganligi hamda investorlar bilan ishlash institutining mavjudligi investitsion risklar darajasini pasaytirib, kompaniya kapitallashtirilishining oshishiga xizmat qiladi. Nazorat aksiyadori mavjud bo'lgan sharoitda strategik qarorlar qabul qilish jarayonining tezlashuvi va menejment faoliyati ustidan nazoratning kuchayishi ijobiy samara berishi mumkin, biroq minoritar aksiyadorlar huquqlari yetarli darajada himoya qilinmagan taqdirda manfaatlar to'qnashuvi hamda bozor likvidligining pasayishi xavfi kuchayadi. Shu sababli, investitsion jozibadorlikning barqaror o'sishini ta'minlash korporativ boshqaruvning institutsional mexanizmlarini, jumladan mustaqil direktorlar institutini, audit va risk qo'mitalari faoliyatini, oshkoralik siyosatini hamda affillangan bitimlar ustidan nazorat tizimini kuchaytirish va ularni kapital bozori talablariga moslashtirish orqali amalga oshiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. OECD. Corporate Governance Factbook 2020. Organisation for Economic Co-operation and Development. - Paris, 2020. URL: <https://www.oecd.org/daf/ca/Corporate-Governance-Factbook.pdf>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 26.10.2022-yildagi "2021 — 2025-yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish strategiyasi qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, ba'zilarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida"gi 619-sonli qarori. <https://lex.uz/docs/-6254938>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>
4. Jensen M.C., Meckling W.H. Theory of the firm: Managerial behavior, agency costs and ownership structure. — Journal of Financial Economics, 1976.
5. Shleifer A., Vishny R. A survey of corporate governance. — Journal of Finance, 1997. <https://onlinelibrary.wiley.com/doi/abs/10.1111/j.1540-6261.1997.tb04820.x>
6. La Porta R., Lopez-de-Silanes F., Shleifer A., Vishny R. Investor protection and corporate governance. — Journal of Financial Economics, 2000.
7. Gromb D., Vayanos D. Corporate governance and firm performance. — Review of Finance, 2010.
8. Bebchuk L.A., Cohen A., Ferrell A. What matters in corporate governance? — Review of Financial Studies, 2009.
9. World Bank, Corporate Governance Assessment, 2021, <https://www.worldbank.org/en/topic/corporategovernance>
10. UNCTAD. World Investment Report 2023: Investment in Sustainable Energy. United Nations Conference on Trade and Development. - Geneva, 2023. URL: https://unctad.org/system/files/official-document/wir2023_en.pdf
11. Javlonbek Kurbonov — korporativ tuzilmalar investitsion jozibadorligiga ta'sir etuvchi omillar <https://mpkjurnal.com/index.php/MPK/article/view/4566/4549/6921>
12. Akramova Nazokat Israilovna. O'zbekistonda korporativ boshqaruv tizimini tatbiq etish va rivojlantirish. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/10_Akramova.pdf?utm_source
13. OECD, Corporate Governance Factbook 2020, PDF: <https://www.oecd.org/daf/ca/Corporate-Governance-Factbook.pdf>
14. World Bank. Corporate Governance and Capital Markets Development Report 2021. The World Bank Group, Washington D.C., 2021. URL: <https://www.worldbank.org/en/topic/corporategovernance>
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2020-2022 yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4563-sonli Qarori. 09.01.2020 y. <https://lex.uz/ru/docs/4689640>; Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini takomillashtirish va korporativ boshqaruv tizimini rivojlantirish bo'yicha Komissiya yig'ilishining 2015-yil 31-dekabrda 9-son bayonnomasi bilan tasdiqlangan
16. World Bank, Capital Markets and Corporate Governance Report 2021. <https://www.worldbank.org/en/topic/corporategovernance>
17. World Bank, SOE Corporate Governance Report 2021, <https://www.worldbank.org/en/topic/corporategovernance>



18. Standard & Poor's. Corporate Governance Evaluation Methodology. S&P Global Ratings. - New York, 2020. URL: <https://www.spglobal.com/ratings>
19. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.04.2015-yildagi "Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4720-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-2635197>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100